


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



**“ABDULLA AVLONIY IJODIY MEROSINING ADABIY-ESTETIK
VA ILMIY-MA’RIFIY QIMMATI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

TO‘PLAMI

Toshkent shahri, 2023 yil 11 iyul

imkoniyatlari"-T.:2011.-B.14-15

3. Teshaboeva, U_Kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan muhim hujjat.

4. Oyina.uz sayti.

ABDULLO AVLONIYNING TA'LIM – TARBIYA RIVOJIDAGI O'RNI, TARIXIY TAXLIL.

(XIX-asr oxiri va XX-asr boshlari)

Elova Dilnoza Davlatovna BuxDU, p.f.f.d, (PhD)

Axmadov Olimjon Shodmonovich BuxDPI, dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annatsiya: Ushbu maqola o'zbek milliy madaniyatining vakillaridan biri, ma'rifatparvar olimi Abdulla Avloniy Sharq va G'arb ta'lim –tarbiya tizimiga qo'shgan beqiyos xizmatlarini hozirgi yangi O'zbekistonda qadrlanayotganligi o'z moxiyatini topgan.

Kalit so'zlar: Abdulla Avloniy , xavf-xatar, ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, xalqni ilm-ma'rifatli qilish, din, dunyoviy ta'lim-tarbiya.

XIX-asr oxiri va XX-asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy o'qish va o'qitish usuliga yangilik kiritib, yangi maktablar tashkil etgan. U o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, Sharq va G'arb tillarini o'rgatish kabi muhim ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni bajarib, o'zbek millati tarixida o'chmas iz qoldirgan. O'zbek pedagogikasining "otasi" va yurtimizda birinchilardan bo'lib professor unvoniga sazovor bo'lgan.

Abdulla Avloniy merosini o'rganish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Bu haqida Davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yil 8-oktabr kuni "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyish imzolandi. Farmoyishda keltirilgan quyidagi so'zlari o'rinlidir: "Dunyoda global xavf-xatarlar kuchayib borayotgan hamda milliy o'zlikni anglash va haqiqiy tariximizni tiklash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi davrda mustabid tuzum tomonidan shafqatsiz qatag'on qilingan davlat

va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot namoyandalarining, oddiy kasb egasi bo'lgan minglab yurtdoshlarimizning nomlari va xotiralarini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodimizni

Vatanimiz va xalqimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda”

Shuningdek, mamlakatimizda uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimining joriy

etilayotganligi nihoyatda quvonarli. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli Qarori bu boradagi amaliy harakatlarning huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tashabbuskorligida qator hamkor tashkilotlar ishtirokida shakllantirilgan mazkur “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” zamonaviy tarbiya tizimining dolzarb muammolari yechimiga qaratilgan amaliy loyiha bo‘lib, uning maqsad va vazifalari bilan bog‘liq talablari ijrosida tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari: oila, ta’lim tizimi, mahalla, huquq-tartibot organlari vakillari birdek mas’uldirlar.

Insoniyat ilk yaralgan davrlardan buyon uning ma’naviy-axloqiy kamoloti eng asosiy masala, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ijtimoiy zarurat sanaladi. Shu bois har qanday davrning buyuk siymolari, ma’rifat peshvolari, avvalo, ruhiy-ma’naviy tarbiya borasida qayg‘urganlar, komillikni targ‘ib etganlar. Ta’lim va tarbiyani uyg‘unlikda olib borish yuzasidan dolzarb tavsiyalarni ilgari surganlar. Bu, ayniqsa, XX-asr boshlarida keng taraqqiy etgan jadid ma’rifatparvarlari faoliyatida yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ma’lumki, XX-asr boshlarida Turkistonda keng yoyilgan jadidchilik harakati namoyandalari o‘z faoliyatlarida jamiyat ijtimoiy-ma’rifiy hayotiga turli mazmundagi yangi islohotlar, yangi qarashlarni targ‘ib qiladilar. Ular jamiyat inqirozining asosiy sababini savodsizlik, ilmsizlik, ma’rifatsizlikda ko‘rib, asosan, xalqni ilm-ma’rifatli qilish, diniy va dunyoviy bilimlarni teng o‘rganish, ta’lim-tarbiya tizimini yangilash va rivojlantirish yuzasidan jadal islohotlarni amalga oshiradilar.

Jadidchilik harakatining maqsad va g‘oyalarini chuqur hamda ta’sirchan targ‘ib etishda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon singari adabiy siymolarning faoliyati nihoyatda yuqori bo‘lib, ular jadid adabiyotining yorqin siymolari, ma’rifatparvar shaxslar sifatida tarix sahifalaridan muqim o‘rin egallashgan. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari bugungi kunda o‘zbek milliy maktabini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Avloniy ijodiy merosini chuqur o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Avloniy “axloq ulamosi”ning qarashlari

asosida insonlarning xulqlarini yaxshi va yomon xulqlarga ajratadi. “Yaxshi xulqlar” deb, u 31 fazilat, “Yomon xulqlar”da 20 illatga ta’rif beradi. O‘z mulohazalarini dalillash uchun Qur’on oyatlari va hadislardan, shuningdek, Arastu, Suqrot, Ibn Sino, Sa’diy, Mirzo Bedil singari mashhur mutafakkirlarning fikrlarini keltiradi. Har bir axloqiy kategoriyaga o‘z munosabatini bildirgach, o‘sha fikrning mazmunini ifodalovchi bayt yo biror maqol-hikmat ilova qilgan. Insonlarning xulqlarini yaxshi va yomon xulqlarga ajratishda, bunga ularning nafs tarbiyasini asos qilib oladi. U yaxshi xulqlarga matonat, nazokat, shijoat, intizom, vijdon, vatanni suymak kabi fazilatlarini kiritadi, g‘azab, shahvat, jaholat, safohat kabi illatlarni yomon xulqning belgilari deb biladi.

Avloniyning ma’rifatparvarlik va milliy uyg‘onish g‘oyalarini kuylagan dastlabki she’rlari o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotining hamisha bebaho mulki bo‘lib qoladi. U bu turkumga mansub she’rlarida o‘zbek mumtoz adabiyotidagi she’riy shakllarni katta ijtimoiy mazmun, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, hajviy ruh va xalqona ohanglar bilan boyitdi. Abdulla Avloniy bolalar uchun ham bir qancha she’r va masallar yozgan. Shoir bu asarlarida maktab yoshidagi bolalarning fikr doirasini kengaytirish, ularda maktab va kitobga, mehnatga, tabiatga, Vatanga muhabbat uyg‘otishni maqsad qilib qo‘ygan. Uning

ko‘pgina she’rlari zamirida Vatanni sevish g‘oyasi yotadi. Shoir bu she’rlarida Vatanni sodda va samimiy misralarda tasvirlaganki, faqat o‘sha 10-yillarning o‘rtalaridagina emas, balki bugungi maktab yoshidagi bolalar ham ulardan katta estetik zavq olishlari mumkin.

Darhaqiqat, shoir Vatan ta’rifini boshlab, “Tog‘laridan konlar chiqar, Yerlaridan donlar chiqar... Havosi o‘ta yoqumlik, Cho‘llari bor toshlik, qumlik, Toshkand emas, toshqand erur, Kesaklari gulqand erur”, – deya bolalarda ona diyorga katta mehr uyg‘otishga erishadi. Ma’rifatchilik va ijtimoiy mavzu Avloniy she’riyatida markaziy o‘rinni egallaydi. Shoir ilm-fanning fazilatlarini zavq bilan kuylaydi. “Maktab”, “maorif”, “ilm”, “fan” kabi

tushunchalar shoir she’rlarida ezgulikning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko‘tariladi, “jaholat” va “nodonlik” esa zulmat va yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi.

Abdulla Avloniy qarashlariga ko‘ra, axloq tarbiyasi xususiy ish emas. Bu tarbiya – ijtimoiy jarayon. Har bir insonning tarbiyasiga butun jamiyat mas’ul bo‘lishi lozim. Xalqlar, millatlarning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi ko‘p jihatdan o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Abdulla Avloniyning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarida yaxshilik muhim o'rin tutadi. Adib yaxshilikni eng ulug' fazilat hisoblaydi, insonlarni bir-birlariga yaxshilik qilishga da'vat etadi. Bu borada o'zi ham ibrat bo'ladi. Xususan, alloma aholining bilim-ma'rifatini oshirish maqsadida o'z boyligini yangi maktablar, teatr truppalari ochishga beminnat sarflaydi, gazetalar chop ettiradi. O'z xulosalarni shunday ifodalaydi:

Yaxshilik qilsang, bo'lur joning omon,

Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.

Yaxshi so'z birlan ilon indan chiqar,

So'z yomon bo'lsa, pichoq qindan chiqar.

Abdulla Avloniy ma'naviy-axloqiy ta'limotida saxiylik, rahm-shafqat, xushfe'llik, xushmuomalalikni targ'ib etish ham yuqori o'rin tutadi. Adib bularni eng yaxshi insoniy fazilatlar hisoblaydi. Saxiylikni olqishlab, ushbu xislat insonga olqish musharraf etishini quyidagi voqea misolida bayon etadi:

Said maktabga ketayotganda yo'lda bir kishini uchratadi. U kishi deydi: "O'g'lim, ikki kundan beri ochman, taom olib yey desam, ustimdagi yirtiq chakmondan boshqa hech narsam yo'q", – deydi. Said faqirning holiga rahmi kelub, atosi bergan o'n tiyin pulni faqirga berdi. Faqir ofarin qilub, yig'lay-yig'lay duolar qilub ketdi. Said uyiga borgan zamon qilg'on ishini otasiga so'zladi. Otasi ham "saxiy Saidim", deb xursand bo'lib, duo qildi ham bundan so'ng Saidga har kuni yigirma tiyindan berurg'a va'da qildi, uni olqishladi. Ushbu hikoyacha qanchalik ixcham va sodda bo'lmasin, unda adibning xayr-u saxovat, yaxshilik borasidagi ma'naviy qarashlari mujassamlashgan. Aksariyat holda otasi bergan pulini o'zi ishlatmay, birovga berib yuborgan farzand, albatta, dakki, tanbeh

eshitadi. Ushbu hikoyada esa Saidning otasi o'g'lining qilmishini oqlaydi, qo'llaydi, "saxiy Saidim" deb erkalaydi. Shu paytgacha berib kelayotgan pulidan ikki barobar ko'p berib, o'g'lini rag'batlantirish orqali muhtojlarga yordam berishga, saxiylikka ilhomlantiradi. Otaning bunday yondashuvi o'g'liga namuna bo'ladi. O'z otasi saxovatli, yaxshilikparvar ekanligidan faxrlanadi.

Abdulla Avloniy o'z davrining yetuk ma'rifatparvarlari singari millat tilini rivojlantirish borasida ham qattiq qayg'uradi. Adib: "Har bir millatning dunyoda borligin ko'rsatadurg'on oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millat ruhini yo'qotmakdur", – deya uqtiradi. U, shuningdek, so'zning inson qadr-qimmatini belgilashdek mavqeyiga umuminsoniy nuqtayi nazardan baho beradi. Til va so'z odobi haqidagi fikrlarini shunday ifodalaydi: "So'z insonning daraja va

kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurg‘on tarozisidir. Aql sohiblari kishining fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar”. Alloma rostgo‘ylik va to‘g‘riso‘zlikni insonning eng muhim insoniy sifatlardan biri, deb baholaydi va bu borada shunday deydi: “Haqqoniyat deb ishda to‘g‘rilik, so‘zda rostlikni aytilur. Inson bo‘stoni

salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo‘li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o‘lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onosi haqqoniyatdur”.

Abdulla Avloniyning fikricha, insonni kamolotga yetkazishda bosh omil bo‘lgan aql ilm va tajriba tufayli rivojlanadi. Ilm olish riyozat chekishni, sa‘y-g‘ayratni talab qiladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Abdulla Avloniy kishining ilm olishini eng oliy fazilat hisoblaydi. Uning aytishicha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, ilm xalq farovonligi yo‘lida qo‘llanilmasa, u o‘likdir. Shuning uchun ham, adib xalqqa ko‘proq nafi tegadigan ilm-hunar bilan shug‘ullanishni taklif etadi. Abdulla Avloniy atoqli pedagog, murabbiy sifatida butun hayotini ma‘rifat rivojiga baxsh etdi. U o‘z ilmiy asarlari, darsliklarida Vatan, vatanparvarlik, ilm-hunar, axloq-odob, ma‘rifat, inson kamoloti, jamiyat rivoji haqida fikrlarni bayon qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini badiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishi 2020-yil 8-oktyabr, F-5598-son. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-son).
3. Avloniy A. “Turkiy guliston yoxud axloq”, T., “O‘qituvchi”, 1992 y.
4. Avloniy A. Birinchi muallim. – T., 1915.
5. Avloniy A. Tanlangan asarlar. // Turkiy guliston yoxud axloq. – T, 1995.
6. Yoqubov I. Badiiy-estetik so‘z sehri. – T.: “FTM bosmaxonasi”, 2011.

7. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2004.

8. Qosimov B. va boshq. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: “Ma’naviyat”, 2004.

MUNDARIJA:

1. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori	
2. Kirgizbayev	Abdug‘affor Karimjonovich 4
.....	
3. Abdullayeva Barno Sayfutdinovna. ABDULLA AVLONIY IJODIY MEROSINIG TA’LIM-TARBIYADA TUTGAN O‘RNI.....	5

96. Nazarova Maloxat Axmedovna. JAXON TAJRIBASI ASOSIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBAR XODIMLARining MALAKA OSHIRISH TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO'LLARI	494
97. Usmanova Umida Aybekovna. MAGISTRATURA TALABALARDA ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI	498
98. Karabayeva Maxliyo. BOSHLANG'ICH SINFDARSLIKLARINING TARKIBIY TUZILISHI VA MAZMUNI.....	505
99. Alimbayeva Ozoda Isabekovna. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFDAN O'QITUVCHILARINI IJTIMOIIY-AXBOROT BILIMDONLIGINING MAZMUNI.....	512
100. X.X.Мустафоева МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КЛЮЧЕВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ.....	518
101. Nazarova D.O BOSHLANG'ICH SINFDAN O'QUVCHILARINING KREATIVLIK QOBILiyATLARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING YO'NALISHLARI	520
102. Sharopov Nabi IDROKNING NERF-FIZIOLOGIK ASOSLARI....	522
103. Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Abdullayeva Durdona O'ktam qizi SINFDAN TASHQARI ISHLARDA IQTIDORLI O'QUVCHILARNI TARBIYALASH.....	
104. K.A.Abrorxonova, Kamolova Nodirabegim RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINFDAN O'QUVCHILARIDA AQLIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY VA NAZARIY ASOSLARI.....	524
105. K.A.Abrorxonova, Normamatova Feruza BOSHLANG'ICH SINFDAN O'QUVCHILARIDA KITOBSEVARLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH-DAVR TALABI	529
106. Elova Dilnoza Davlatovna, Axmadov Olimjon Shodmonovich ABDULLO AVLONIYNING TA'LIM – TARBIYA RIVOJIDAGI O'RNI, TARIXIY TAXLIL.(XIX-asr oxiri va XX-asr boshlari).....	536